

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAYIDOV NOZIMJON ABDULNOSIROVICH

**KUCHLI ELEKTROMAGNIT MAYDON TA'SIRIDAGI NANO O'LCHAMLI
YARIMO'TKAZGICHLARDA MAGNITOOPTIK YUTILISH
KOEFFITSIENTI VA MAGNITOQARSHILIK OSSILLYATSIYALARINING
HARORATGA BOG'LIQLIGINI MODELLASHTIRISH**

01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich

Kuchli elektromagnit maydon ta'siridagi nano o'lchamli yarimo'tkazgichlarda magnitooptik yutilish koeffitsienti va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarining haroratga bog'liqligini modellashtirish..... 3

Сайидов Нозимжон Абдулносирович

Моделирование температурной зависимости коэффициента магнитооптического поглощения и осцилляции магнитосопротивления в наноразмерных полупроводниках под влиянием сильного электромагнитного поля..... 21

Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich

Modeling the temperature dependence of the magneto-optical absorption coefficient and the magnetoresistance oscillations in nano-sized semiconductors under the influence of a strong electromagnetic field..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAYIDOV NOZIMJON ABDULNOSIROVICH

**KUCHLI ELEKTROMAGNIT MAYDON TA'SIRIDAGI NANO O'LCHAMLI
YARIMO'TKAZGICHLARDA MAGNITOOPTIK YUTILISH
KOEFFITSIENTI VA MAGNITOQARSHILIK OSSILLYATSIYALARINING
HARORATGA BOG'LIQLIGINI MODELLASHTIRISH**

01.04.10 – Yarimo'tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/FM416 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.nammti.uz) va Ziyonet Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Erkaboyev Ulugbek Inayatillayevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Onarqulov Karimberdi Egamberdiyevich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Nosirov Murodjon Zokirovich

fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “__” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 225-10-07; (99869) 225-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutiining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____raqam bilan ro‘yxatga olingan.) Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “__” _____ da tarqatildi.
(2024 yil «__” _____ dagi № ____ raqamli ryestr bayonnomasi.)

M.G‘. Dadamirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash
raisi o`rinbosari, f.-m.f.d., professor

A.A. Abdulkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

N.Yu.Sharibayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda, hozirgi kunda kvant o'ra asosidagi yarimo'tkazgichli strukturalar, spintronik va magnitofotonik kristallar, nanokompozitlar kabi sun'iy ravishda yaratilgan magnit nanostrukturalarning kvant effektlari hamda magnitoptik xossalari o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, magnitoptik va magnitoqarshilik ossillyatsiyalari kvant o'lchamli geterostrukturalarning turli xossalari va xususiyatlarini o'rganish uchun juda samarali bo'lib, u yangi magnit yarimo'tkazgichlar va istiqbolli spintronik materiallarda erkin zaryad tashuvchilarning spin polarizatsiyasini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun, bir qator yetuk olimlarda nano o'lchamli yarimo'tkazgichli strukturalarda kvant magnit effektlarini harorat, kuchli elektromagnit to'lqin hamda kvantlovchi magnit maydonlarga bog'liqligini o'rganish alohida ilmiy va amaliy jihatdan qiziqishga olib keladi. Ayniqsa, mikroto'lqinli maydon ta'siridagi kvant o'lchamli geterostrukturali yarimo'tkazgichlarning magnitoptik yutilish koeffitsienti va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini aniqlash, ular yordamida boshqarish hamda ushbu yarimo'tkazgichli materiallarning tashqi omillarga chidamliligini oshirish muammolarini hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida, tashqi omillar ta'siridagi kvant o'lchamli yarimo'tkazgichli strukturalarning kombinirlangan holatlar zichligi va magnitoqarshilik ossillyatsiyalari xususiyatlarini, jumladan kuchli elektromagnit maydon va harorat ta'sirida magnitoptik yutilish koeffitsientini aniqlash va ushbu tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshiruvchi magnit nanostrukturali yarimo'tkazgichli asboblarni olish texnologiyasini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Respublikamizda ilm – fan rivojiga, jumladan, nanostrukturali yarimo'tkazgichlarning elektr, magnit va optik xossalari bo'yicha kvant magnit effektlariga tashqi omillarning ta'sirini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish va uni yanada amaliy qo'llashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mazkur fundamental tadqiqotlar negizida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha zonalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish"¹ kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, matematik modellar yordamida kichik o'lchamli yarimo'tkazgichli tuzilmalarning yorug'lik va qorong'ulikdagi ko'ndalang magnitoqarshilik va elektr o'tkazuvchanlik ossillyatsiyalarini turli magnit maydon va haroratlar ta'sirida boshqarish imkoniyatini o'rganish muhim masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son "Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2021 yil 9 apreldagi PQ-5063-son "O'zbekiston

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni

Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika zonasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779-son "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada hizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining F2 «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda, kuchli elektromagnit maydon ta'siridagi nano o'lchamli yarimo'tkazgichlarda magnitoptik yutilish koeffitsienti va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarining haroratga bog'liqligini juda katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Jahonning yetuk olimlaridan N.F. Mott, D.G. Seiler, K.T. Shindo, R.P. Seysyan, V.Ya. Aleshkin, A.L. Efros, Nai-Chuan Chen, E.I.Zenkevich, Yu.I.Galperin, A.I.Veynger hamda mashhur o'zbek olimlari M.K.Baxadirxanov, S.Z. Zaynabidinov, R.A. Muminov, T.S.Shamirzaev, G.Gulyamov va boshqalar kvant o'lchamli yarimo'tkazgichli strukturalarning magnitoptik va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini harorat va kuchli elektromagnit maydonga bog'liqligini tadqiq etishgan. Nai-Chuan Chen rahbarligidagi bir qator Tayvand olimlari tomonidan *InGaN/GaN* kvant o'rali geterostrukturali yarimo'tkazgichlarning kombinirlangan holatlar zichligini uch xil to'lqin uzunlikdagi (binafsha, ko'k va yashil) nurlanishlarga bog'liqligi tajribaviy aniqlangan. Kombinirlangan holatlarga mos keladigan holatlar zichligining past energiyali uchida ruxsat etilgan zonalarning chegara qismlarida "dum" lar paydo bo'lishi kuzatilgan va bu dumlarning mavjudligi kvant o'rali geterostrukturalarning energetik spektrini kengaytirishiga olib kelgan. Ammo, ushbu ishlarda, kombinirlangan holatlar zichligiga harorat va magnit maydonning ta'siri tadqiq etilmagan. A.I. Veynger rahbarligidagi bir qator Rossiya olimlari tomonidan *InAs/GaSb* kvant o'rali yarimo'tkazgichning magnitoqarshilik ossillyatsiyalariga kuchli mikroto'lqinli maydon va haroratning bog'liqligi tadqiq etilgan. Bunda, mikro to'lqinli elektromagnit maydonning quvvati (P) ni magnit magnit maydon kuchlanganligi (H) bo'yicha ikkinchi tartibli differensial ($\frac{d^2P}{dH^2}$) ossillyatsiyalarini magnit maydon va haroratga bog'liqligi aniqlangan. Lekin, ushbu ishlarda, tajriba natijalarini tushuntirib beruvchi mukammal model ishlab chiqilmagan. Hozirgi kunlarda, mamlakatimiz olimlaridan G'. G'ulomov va uning shogirdlari tomonidan magnitoptik yutilish koeffitsienti va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini tashqi omillarga bog'liqligini ham amaliy ham nazariy jihatdan hisoblash imkoniyatlari ko'rsatilgan. Biroq, ushbu ishlarda faqat hajmiy yarimo'tkazgichli tuzilmalar uchun kvant effektlarini haroratga bog'liqligi ko'rilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik – texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining FZ-2020092433 «Yuqori harorat va kuchli mikroto'lqinli maydondagi nanostrukturali yarimo'tkazgichlarda magnitoqarshilik, magnit singdiruvchanlik va magnitoptik yutilish koeffitsiyentlarini aniqlash» (2022-2026 yy.) mavzudagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kuchli elektromagnit maydon ta'siridagi nano o'lchamli yarimo'tkazgichlarda magnitoptik yutilish koeffitsienti va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarining haroratga bog'liqligini modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kvantlovchi magnit maydon ta'siridagi kvant o'raning ruxsat etilgan zonasida ikki o'lchovli kombinirlangan holatlar zichligi ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligi tadqiq etish;

to'g'ri zonali kvant o'ra asosidagi geterostrukturada ikki o'lchovli kombinirlangan holatlar zichligini haroratga bog'liqligiga kvantlovchi magnit maydonning ta'sirini hisoblash uchun yangi model ishlab chiqish;

taklif etilayotgan model asosida kvant o'rali yarimo'tkazgichlarning magnitoptik yutilish koeffitsientini haroratga bog'liqligini hisoblovchi umumiy matematik ifodani keltirib chiqarish;

kuchli elektromagnit maydon ta'siridagi kvant o'lchamli yarimo'tkazgichlarning magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini tadqiq etish;

taklif qilingan matematik model asosida ossillyatsiyalarning eksperimental natijalaridan foydalangan holda yuqori haroratlarda yarimo'tkazgichli tuzilmalarda mikroto'lqinli nurlanishning yutilishini o'rganish;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kvant o'rali to'g'ri zonali geterostrukturali yarimo'tkazgichlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti kombinirlangan holatlar zichligi, magnitoptik yutilish koeffitsienti hamda magnit maydon induksiyasi bo'yicha ikkinchi tartibli differensial magnitoqarshilik ossillyatsiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan masalani yechish uchun nazariy fizikani taqribiy usullari, delta – funksiyalarni qatorga yoyish usuli, birinchi va ikkinchi tartibli differensial tenglamlarni yechish bo'yicha olingan murakkab matematik ifodalarni sonli hisoblash (Maple dasturidan foydalanib) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor, to'g'ri zonali nanostrukturali yarimo'tkazgichlarda zonalararo magnitoptik yutilish koeffitsienti ossillyatsiyalarining haroratga bog'liqligini kombinirlangan holatlar zichligining delta-funksiyalarini qatorga yoyish usuli yordamida asoslangan;

kuchli magnit maydondagi kvant o'lchamli yarimo'tkazgichlarning kombinirlangan holatlar zichligini haroratga bog'liqligini hisoblashning yangi metodi taklif etilgan;

ikki o'lchamli kombinirlangan holatlar zichligi ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini matematik modeli ishlab chiqilgan;

o'ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi kvant o'rali geterostrukturali yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanlik ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini ifodalovchi yangi analitik ifodalar topilgan;

taklif etilayotgan model yordamida, to'g'ri zonali nanostrukturali yarimo'tkazgichlarning kvant effekti ossillyatsiyalarini harorat, magnit maydon kuchlanganligi va kuchli elektromagnit to'lqin quvvatlariga bog'liqligini differensial tenglamalari keltirib chiqarilgan va ular asosida tajriba natijalari tushuntirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kvant o'rali geterostrukturali yarimo'tkazgichlarning magnitoptik yutilish koeffitsientlarini haroratga bog'liqligini aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

kuchli elektromagnit maydon ta'siridagi nanostrukturali yarimo'tkazgichlarning magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini aniqlash uchun kompyuter dasturi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: kichik o'lchamli yarimo'tkazgichli tuzilmalarning elektr o'tkazuvchanlik ossillyatsiyalarini nazariy hisoblash natijalari tajriba bilan mos kelishi, shuningdek tajriba qiymatlaridan foydalangan holda past haroratlarda olingan differensial magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini yuqori haroratlarda tadqiq etish ishlab chiqilgan matematik modellashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati taklif etilayotgan matematik model kichik o'lchamli yarimo'tkazgichli tuzilmalarda ko'ndalang magnitoqarshilik ossillyatsiyalarini yorug'lik va haroratga bog'liq bo'lishini tushuntirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilayotgan modellashtirish usullaridan yangi kvant o'rali geterotuzilmalar, nano o'lchamli magnetodiodlarni ishlab chiqarishda foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kuchli elektromagnit maydon ta'siridagi nanostrukturali yarimo'tkazgichlarda magnitoptik yutulish koeffisienti va magnitoqarshilik ossillyatsiyalarining haroratga bog'liqligini modellashtirish natijalari asosida:

nanostrukturali yarimo'tkazgichlarning magnitoptik yutulish koeffisientini haroratga bog'liqligini hisoblashda olingan natijalardan "To'g'ri zonali bo'lmagan yarimo'tkazgichli kvant nuqtalar: lokallashtirilgan eksiton spinlarining dinamikasi va rekombinatsiyasi" mavzusidagi № 19-02-00098 raqamli amaliy loyihada bajarishga qo'llanilgan (Rossiya fanlar akademiyasi Sibir bo'limi A.V.Rjanov nomidagi yarimo'tkazgichlar fizikasi institutining 2024 yil 9 yanvardagi № 15307-26-6804 sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanishda loyihadagi kvant o'lchamli yarimo'tkazgichlarning magnitoptik yutulish koeffisientini 1.3% ga oshirish imkonini bergan;

o'ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi nanoo'lchamli yarimo'tkazgichlarda kvant effekti ossillyatsiyalarini haroratga bog'liqligini aniqlashda olingan natijalardan "O'ta yuqori chastotali elektromagnit maydondagi deformatsiyalangan p-n-o'tish volt-ampere xarakteristikasiga yorug'likning ta'sirini tadqiq etish" mavzusidagi OT-F2-71 raqamli fundamental grantni bajarishda

qo'llanilgan (Namangan muhandislik-qurilish institutining 2024 yil 8 fevraldagi №06/10- 09/122 sonli malumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanishda loyihadagi magnitoqarshilik kattaligini 3.5% ga kamaytirishga erishilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 18 ta, jumladan 11 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish, shulardan 2 ta monografiya, O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola, jumladan 6 tasi Scopus ma'lumotlar bazasida kiritilgan horijiy jurnallarda nashr qilingan hamda tadqiqot mavzusi bo'yicha 2 ta EHM uchun dasturiy guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kuchli elektromagnit maydondagi nanoo'lchamli yarimo'tkazgichlarda kvant ossillyatsiya hodisalari**» deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar sharhi taxlil qilingan, unda nanostrukturali yarimo'tkazgichlarda magnitoptik yutilish koeffitsienti, kombinirlangan holatlar zichligi va magnitoqarshilik ossillyatsiyalariga kuchli elektromagnit to'lqin va haroratning ta'sirini o'rganish tendensiyalari adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Mavjud nazariy va eksperimental ma'lumotlarni tahlil qilish asosida masalani qo'yilishi shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kvant-o'lchamli geterostrukturalarda ikki o'lchamli kombinirlangan holatlar zichligining tashqi faktorlar (harorat va magnit maydoni) ga bog'liqligini aniqlash**» deb nomlangan ikkinchi bobida to'g'ri burchakli kvant o'ralar asosidagi geterostrukturalarda kombinirlangan (birlashgan) holatlar zichligi ossillyatsiyalarining kuchli magnit maydoniga bog'liqligi tadqiq etilgan. To'g'ri zonali kvant o'rali geterostrukturalarda kombinirlangan holatlar zichligini haroratga bog'liqligiga kvantlovchi magnit maydonning ta'siri tadqiq etilgan. Kvantlovchi magnit maydonlarida kvant o'ralarini ikki o'lchamli kombinirlangan holat zichligining haroratga bog'liqligini hisoblash uchun yangi matematik model ishlab chiqilgan. Taklif etilgan model nanoo'lchamli, to'g'ri zonali, parabolik qonunga bo'ysunuvchi yarimo'tkazgichlardagi eksperimental natijalarni tushuntirgan.

Agar kvant o'rali strukturalarda elektron va teshik holatlari barcha uchta kvaziimpuls komponentlar bo'yicha o'lchamli-kvantlangan bo'lsa, u holda bunday strukturaning ruxsat etilgan zonasida holatlarning kombinirlangan zichligi Gauss funksiyasi ko'rinishda bo'ladi. U holda, kombinirlangan holat zichligi $\delta(E)$ – Dirak delta-funksiyasi deb ataluvchi funksiya yordamida ifodalanadi:

$$N_{jds}^{0d}(E) = \sum_{l,m,n} \delta(E - E_{lmn}) \quad (1)$$

Kombinirlangan holatlar zichligi cheksiz qisqa va baland cho'qqilarning majmuasidan iborat bo'ladi. Kuchli magnit maydoni mavjud bo'lganda, kvant o'raning kombinirlangan holatlar zichligini hisoblash uchun energiyaning saqlanish qonunini parabolik dispersiya qonuniyati uchun foydalaniladi. Ya'ni; $E_c^{2d}(B, d, n_z)$ va $E_v^{2d}(B, d, n_z)$ lar uchun, spinni hisobga olmaganda, magnitoptik o'tishlar energiyaning saqlanish qonuniga mos keladi:

$$E_{cv}^{2d}(B, d, n_z) = E_c^{2d}(B, d, n_z) - E_v^{2d}(B, d, n_z)$$

$$E_{cv}^{2d}(B, d, n_z) = E_g^{2d}(0) + \left(N_L^c + \frac{1}{2}\right) \hbar\omega_c^c + \left(N_L^v + \frac{1}{2}\right) \hbar\omega_c^v + \frac{\hbar^2\pi^2}{2m_{cv}^*d^2} n_z^2 \quad (2)$$

$$h\nu \geq E_{cv}^{2d}(B, d, n_z)$$

Bu yerda, N_L^c, N_L^v – kvan o'raning ruxsat etilgan zonasidagi zaryad tashuvchilarning Landau satxlari soni; ω_c^c, ω_c^v – kvant o'raning o'tkazuvchan va valent zonalarida magnit maydonining siklotron chastotasi; d – kvant o'ra qalinligi; n_{eZ}, n_{vZ} – mos ravishda Z o'qi bo'yicha elektronlar va teshiklarning kvantlash satxlari tartib raqamlari; elektron va valent zonalar simmetrik deb faraz qilamiz, u holda, $n_{eZ} = n_{vZ} = n_z$ shart bajariladi; $m_s^c g_c \mu_B H, m_s^v g_v \mu_B H$ – ruxsat etilgan zonadagi spin energiyasi; $E_g^{2d}(0)$ – absolyut nol haroratda kvant o'rasi ta'qiqlangan zonasining kengligi; V – magnit maydoni induksiyasi, $h\nu$ – yutilayotgan foton energiyasi, $\frac{1}{m_{cv}^*} = \frac{1}{m_c^*} + \frac{1}{m_v^*}$ – kombinirlangan (keltirilgan) effektiv massa. OZ o'qi yo'nalishi buyicha, kuchli magnit maydoni zaryad tashuvchilar uchun energiya va to'liqin vektori orasidagi nisbatni o'zgartirmaydi. Biroq, zaryad tashuvchilarning magnit induksiyasiga perpendikulyar yo'nalishdagi (XY tekislikda) harakati uchun energetik sathlarning avvalgi kvazi uzluksiz qatori Landauning diskret satxlari sistemasi bilan almashadi. Elektronlar va teshiklarning effektiv massalari teng deb olinayotganligi sababli, Landau sathlari orasidagi masofa kvant soniga bog'liq bo'lmaydi va u $\hbar\omega_s$ ga teng bo'ladi. Demak, kvant o'raning o'tkazuvchan va valent zonalarida erkin elektronlar va teshiklarning har uchchala yo'nalish bo'yicha harakati cheklangan. Kvantlovchi magnit maydoni ta'sirida kvant o'ra xuddiki, kvant nuqta analogiga aylanadi. (1) formulaga muvofiq, $\delta(E - E_{lmn})$ argumentda E ni $h\nu$ ga va E_{lmn} ni $E_{cv}^{2d}(B, d, n_z)$ ga almashtirib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$N_{jds}^{2d}(h\nu, E_{cv}^{2d}(B, d, N_L^{cv}, n_z)) = \frac{eB}{\pi\hbar} \sum_{N_L^c, N_L^v, n_z} \delta(h\nu - E_{cv}^{2d}(B, d, N_L^{cv}, n_z)) \quad (3)$$

(3) formuladan tushunarliki, $h\nu > E_{cv}^{2d}(B, d, N_L^{cv}, n_Z)$ bo'lganda, kombinirlangan holatlar zichligi energiyalar funksiyasi sifatida o'zida deltasimon tabiatni aks ettiradi. Tajribalarning ko'rsatishicha, elektronlar va teshiklarning holat zichliklari haroratga bog'langan. Kvant o'radagi elektronlar va teshiklarning holatlar zichligini haroratga bog'liqligi Landau diskret sathlarining termik kengayishi orqali izohlanadi. Yetarlicha katta haroratlarda, kvant o'raning o'tkazuvchan zonasidagi elektronlar holat zichligi diskret Landau sathidan uzluksiz energetik spektrga aylanadi. Past haroratlarda esa, uzluksiz energetik spektr Landau sathlariga ajralishi bilan bir qatorda, kvantlovchi magnit maydoni kvant o'rani ruhsat etilgan zonasining holatlar zichligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu holatda, harorat ko'tarilgani sari, zaryad tashuvchilarning o'zaro to'qnashuvlari va issiqlik harakati Landau diskret sathlarini kvant o'rani holatlar zichligining uzluksiz spektriga aylantirib, "chaplab" yuboradi. Bundan kelib chiqadiki, zaryad tashuvchilarning diskret Landau sathlarini haroratga bog'liqligi kvant o'ralarining kombinirlangan holatlar zichligini deltasimon funksiyalar qatoriga yoyilmasi orqali ifodalanishi mumkin. Ikki o'lchovli kombinirlangan holatlar zichligini deltasimon funksiyalar qatoriga yoyish yo'li bilan tadqiq qilish orqali kvant o'rali geterostrukturalarda zonalararo magnitoptik yutilish ossillyatsiyasining haroratga bog'liqligini tushuntirishga erishiladi. T=0 bo'lganda, Gauss taqsimot funksiyasi deltasimon bo'ladi va quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$Gauss(E, T) = \frac{1}{kT} \cdot \exp\left(-\frac{(E - E_i)^2}{(kT)^2}\right) \quad (4)$$

Bundan tashqari, zonalararo magnitoptik yutilishni ifodalash uchun, odatda, kvant o'raning har bir energetik spektrini "termik yuvilish" parametri Gauss qonuni bo'yicha kengayadi deb faraz qilinadi. Bunday yondoshish kvant o'rasida ikki o'lchovli kombinirlangan holatlar zichligining haroratga bog'liqligi bilan ifodalanishiga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, chekli T haroratda, nanoo'lchamli yarim o'tkazgichli strukturalar uchun hisoblash $N_{jds}^{2d}(h\nu, E_{cv}^{2d}(B, d, N_L^{cv}, n_Z))$ ning Gauss funksiyalari bo'yicha qatorga yoyishga olib kelinadi. (3) formulada ikki o'lchovli kombinirlangan holatlar zichligining termik kengayishi hisobga olinmaydi. Agar $N_{jds}^{2d}(h\nu, E_{cv}^{2d}(B, d, N_L^{cv}, n_Z))$ ni (4) formula bo'yicha qatorga yoysak, u holda kvant o'raning ruhsat etilgan zonasida ikki o'lchovli kombinirlangan holatlar zichligining haroratga bog'liqligini hisobga olish mumkin. T=0 bo'lganda, (4) formula quyidagi deltasimon funksiya ko'rinishini oladi:


$$Gauss(E, E_i, T) \xrightarrow{T \rightarrow 0} \delta(E - E_i) \quad (5)$$

Shunday qilib, (2), (3), (4) va (5) formulalardan kelib chiqadiki, kvantlovchi magnit maydon ta'sir qilganda, kvant o'rani kombinirlangan holatlar zichligining haroratga bog'liqligi quyidagi analitik ifodaga olib kelinadi:

$$N_{jds}^{2d}(h\nu, E_{cv}^{2d}(B, T, d, N_L^{cv}, n_z)) = \frac{eB}{\pi\hbar} \cdot \frac{1}{kT} \cdot \sum_{N_L^c, N_L^v, n_z} \exp \left[- \frac{\left(h\nu - \left(E_g^{2d}(0) + \left(N_L^c + \frac{1}{2} \right) \hbar\omega_c^c + \left(N_L^v + \frac{1}{2} \right) \hbar\omega_c^v + \frac{\hbar^2\pi^2}{2m_{cv}^*d^2} n_z^2 \right) \right)^2}{(kT)^2} \right] \quad (6)$$

Bu yerda, $N_{jds}^{2d}(h\nu, E_{cv}^{2d}(B, T, d, N_L^{cv}, n_z))$ – kuchli magnit maydoni mavjud bo‘lganda, kvant o‘raning ruxsat etilgan zonasida kombinirlangan holatlar zichligi ossillyatsiyalarining haroratga bog‘liqligi. Ushbu yangi analitik formula kvantlovchi magnit maydondagi kvant o‘rali geterostrukturalarda ikki o‘lchamli kombinirlangan holatlar zichligining haroratga bog‘liqligiga ta‘sirini ifodalaydi. Olingan bu ifoda turli magnit maydonlari va haroratlardagi kvant o‘ralarida, zonalararo magnitoptik yutilish ossillyatsiyasining eksperimental ma‘lumotlarini qayta ishlash uchun qulaydir. Shunday qilib, tashqi faktorlar (harorat va magnit maydoni) ning nanoo‘lchamli yarimo‘tkazgich strukturalarda ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligiga ta‘sirini ifodalovchi matematik model yaratildi.

Ushbu ishda², qalinligi 14 nm, to‘siq qatlamlarida ozgina (3%) alyumniy aralashgan, *GaAs/AlGaAs* kvant o‘rali, yuqori sifatli geterostrukturalar olingan. Ushbu geterostrukturalar 4K haroratda o‘rganilgan. Magnit maydoni bo‘lmaganda, *GaAs* kvant o‘raning ta‘qiqlangan zona kengligi 1,464 eV ga teng bo‘ladi (1-rasm).




1-rasm. T=4 K haroratda va B=9 Tl kvantlovchi magnit maydonidagi *GaAs/AlGaAs* (d=14 nm) kvant o‘rali geterostrukturalarda ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligining fotonning yutuvchi energiyasiga bog‘liqligi

1-rasmda T=4 K haroratda va B=9 Tl kvantlovchi magnit maydonidagi *GaAs* d=14 nm ($n_z=1$) kvant o‘rasi uchun ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligining

² A.V. Mikhailov, A.V. Trifonov, O.S. Sultanov, I.Yu. Yugova, I.V. Ignatiev. *Semiconductors*. 2022, Vol.56, No.7, pp. 672-676

fotonning yutuvchi energiyasiga bog‘liqligi keltirilgan. Ushbu grafik (6) formula bo‘yicha amalga oshirilgan sonli hisoblashlar asosida qurilgan. Ushbu rasmda zaryad tashuvchilarning diskret Landau sathlari soni 14 ga teng. Bu cho‘qqilar zaryad tashuvchilarning diskret Landau sathlari ($N_L^{cv}=14$) *GaAs* kvant o‘raning ruxsat etilgan zonasida kuzatiladi. Unda, $T=4K$, $kT=4\cdot 10^{-4}$ eV, $\frac{\hbar\omega_c}{kT} = 50$, $kT \ll \hbar\omega_c$. bo‘lganda $\hbar\omega_c = 0,02$ eV kvantlovchi magnit maydonidagi ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligi ko‘rsatilgan. Bu holda, zaryad tashuvchilarning Landau satxlarning “termik yuvilishi” juda kuchsiz va ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligi ideal formadan chetlanishni sezmaydi. Ushbu grafikda valent zona va o‘tkazuvchanlik zona simmetrik energetik spektrlar sifatida olingan. U holda, boshlang‘ich ($N_{L(V)}=0$) dan $N_{L(V)}=6$ gacha bo‘lgan teshiklarning diskret Landau sathlari kvant o‘rani valent zonasining shiftidan (potologidan) yuqorida bo‘ladi.

2-rasmda kvantlovchi magnit maydon ta‘siridagi *GaAs/AlGaAs* ($d=14$ nm) kvant o‘rali, to‘g‘ri zonali geterostrukturalarda ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligining fotonning yutuvchi energiyasi bog‘liqligiga haroratning ta‘siri ko‘rsatilgan. Bu yerda, kvantlovchi magnit maydoni induksiya soni 9 Tl ga teng va $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu, E_g^{2d}(B, T, d, N_L^{cv}, n_z))$ grafiklar 4 K, 20 K, 40 K, 60K, 77 K haroratlar uchun qurilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, harorat ortishi bilan Landau satxlarning keskin cho‘qqilari silliqqlana boradi va yetarlicha yuqori xaroratlarda diskret energetik holatlar zichliklari uzluksiz energetik spektrlarga aylanadi. Ushbu natijalar kvant o‘rasi qalinligi va magnit maydonlar o‘zgarmas bo‘lgan holat uchun olingan.




2-rasm. $B=9$ Tl kvantlovchi magnit maydon ta‘siridagi to‘g‘ri zonali *GaAs/AlGaAs* ($d=14$ nm) geterostrukturalarda ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligining fotonning yutuvchi energiyasi bog‘liqligiga haroratning ta‘siri.

Harorat ortishi bilan zaryad tashuvchilar Landau satxlarning keskin cho‘qqilari silliqлана boradi (2-rasm) va $kT \approx \hbar\omega_c^{cv}$ bo‘lganda asta sekin yo‘qolib ketadi. Shuningdek, yetarlicha yuqori $kT > \hbar\omega_c^{cv}$ $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu, E_{cv}^{2d}(B, T, d, N_L^{cv}, n_Z))$ haroratlarda ular kvant o‘raning uzluksiz kombinirlangan holatlar zichligiga aylanadi va kvantlovchi magnit maydonining ta‘sirini sezmay qoladi.

Bundan tashqari, harorat ortishi bilan ruxsat etilgan kvant o‘rasida elektronlar va teshiklar energiya sathlari kvantlanishi bilan bog‘liq zaryad tashuvchilar Landau satxlarning keskin cho‘qqilari ham asta sekin silliqланadi. Bu $T=40K$, $kT=3,5 \cdot 10^{-3}$ eV, $kT \approx \hbar\omega_c^{cv}$ bo‘lganda kvant o‘raning zaryad tashuvchilar diskret Landau satxlarning sezilmay qolishiga olib keladi. 77K haroratda, *GaAs/AlGaAs* kvant o‘raning ruxsat etilgan zonasida diskret Landau sathlari deyarli sezilmaydi va magnit maydoni bo‘lmagan holdagi ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligi bilan bir xil bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, kvant o‘raning o‘tkazuvchan va valent zonalarida ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligi $kT < \hbar\omega_c^{cv}$ bo‘lganda kuzatiladi.


Ushbu ishda³, har xil toklarda ishlovchi turli to‘lqin uzunligidagi (binafsha, ko‘k, yashil rangli) nurlashishli *InGaN/GaN* kvant o‘ralari asosida geterostrukturalarning ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligi tadqiq qilingan (3-rasm). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tok orttirilganda nurlanishning ko‘k siljishi ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Ushbu ishda, *InGaN/GaN* kvant o‘rasining ikki o‘lchovli kombinirlangan holatlar zichligining magnit maydoni bo‘lmaganda va $T=300$ K haroratda foton yutilishiga bog‘liqligi topilgan. Bu yerda *InGaN/GaN* kvant o‘rasi ta‘qiqlangan zonasi kengligi $E_g(0)=3.2$ eV ga teng.



3-rasm. $T=300$ K va $B=0$ da *InGaN/GaN* to‘g‘ri zonali kvant o‘rali yarimo‘tkazgichda kombinirlangan holatlar zichligiga yutilayotgan foton energiyasining bog‘liqligi³.

³ Yu-Shou Wang, Nai-Chuan Chen, Chun-Yi Lu, Jenn-Fang Chen. *Physica B*. 2011. Vol.406. Iss.22. pp. 4300–4303.

Taklif etilgan yangi modelni *InGaN/GaN* materialiga tadbiiq qilaylik. 4-rasmda turli haroratlar uchun *InGaN/GaN* kvant o‘rali yarimo‘tkazgichning kombinirlangan holatlar zichligi ossilyatsiyalarini yutilayotgan foton energiyasiga bog‘liqligiga kvantlovchi magnit maydonning ta’siri ko‘rsatilgan. Bu yerda, $B=10\text{Tl}$, $T=300\text{K}$, 77K va 5K . 3 va 4-rasmlardan ko‘rinib turibdki, xona xaroratida olingan natijalar magnit maydon ta’sirida va magnit maydon bo‘lmagan xollarda deyarli bir xil bo‘lib ko‘rinmokda. Bundan kelib chiqadiki, yangi model tadbiiqi ba’zi qonuniyatlarga bo‘ysunmoqda, demak, taklif etilayotgan model to‘g‘ri ekanligidan dalolat beradi. (6) formuladan foydalanib, turli past haroratlarda ham ikki o‘lchamli kombinirlangan holatlar zichligi ossilyatsiyalarini kuzatish mumkin (4-rasm).



4-rasm. *InGaN/GaN* to‘g‘ri zonali kvant o‘rali yarimo‘tkazgichda kombinirlangan holatlar zichligiga yutilayotgan foton energiyasining bog‘liqligiga harorat va kvantlovchi magnit maydonning ta’siri. Yangi taklif qilingan model asosida hisoblangan.

Dissertatsiyaning «**To‘g‘ri zonali nanostrukturali yarimo‘tkazgichlarda magnitoptik yutulish koefitsientlarini haroratga bog‘liqligini modellashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida to‘g‘ri zonali nanostrukturali yarimo‘tkazgichlarda magnitoptik yutulish koefitsientlarini haroratga bog‘liqligi tadbiiq etilgan. Magnitoptik yutulish koefitsienti ossilyatsiyalarini haroratga bog‘liqligini hisoblashda ikki o‘lchamli kombinirlangan holatlar zichligi $\alpha_B^{2d}(N_S^{2d}(B), T)$ ossilyatsiyalaridan foydalanilgan. Kvant o‘lchamli to‘g‘ri zonali yarimo‘tkazgichli materiallar uchun $\alpha_B^{2d}(N_S^{2d}(B), T)$ ni aniqlashning matematik modeli ishlab chiqilgan.

G‘alayonlanish nazariyasining birinchi yaqinlashuvida yorug‘likning zaryadli zarralar tomonidan yutilishi elektron yoki kovaklarning quyi sathidan yuqori energiyasi holatlariga optik o‘tishlari natijasida sodir bo‘ladi. Umuman olganda, to‘g‘ri zonali hajmiy va kichik o‘lchamli yarimo‘tkazgichli strukturalar uchun yutilish koefitsientining umumiy ifodasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\alpha(\omega) = \frac{2\hbar\omega}{nc\varepsilon_0 F_0^2 V} \sum_{i,j} \sum_k w_{ji}(k) [f_0(E_{jk}) - f_0(E_{ik})] \quad (7)$$

Bu yerda,

$$w_{ji}(k) = \frac{2\pi}{\hbar} \left(\frac{eF_0}{2m_0\omega} \right)^2 |P_{ij}(k)|^2 \delta(E_{ik} - E_{jk} - \hbar\omega) \quad (8)$$

(8) ifoda – elektronning ψ_{jk} to‘lqin funksiyali holatdan ψ_{ik} holatiga optik o‘tish ehtimolligini anglatadi. (7) va (8) larni hisobga olgan holda hamda valent zona shipi (V_j) va o‘tkazuvchanlik zonasi tubi (C_i) kabi chegara zonalarini yaqin joyida ($k=0$ nuqtaga yaqin joyda) optik o‘tishlar uchun yorug‘lik yutilish koeffitsientini chastotaga bog‘liqligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\alpha(\omega) \cong \frac{C}{\omega} \sum_{i,j} |P_{civj}|^2 \rho_{civj}(\omega) \quad (9)$$

Bu yerda, C – sindirish ko‘rsatkichini hisobga olganda ruxsat etilgan zonaning chegara zonalarida chastotaga kuchsiz bog‘liq bo‘lgan proporsionallik koeffitsienti. P_{civj} – matritsali element impulsi. $\rho_{civj}(\omega)$ – chastotaga bog‘liq bo‘lgan kombinirlangan holatlar zichligi. Nanostrukturali yarimo‘tkazgichlar uchun kombinirlangan holatlar zichligi yorug‘lik chastotasiga bog‘liq bo‘lgan delta-funksiyalarni qatorga yoyish orqali aniqlanadi ((5) va (6) ifodaga qarang):

Agar, qo‘yilgan masalani oddiyroq, ya’ni matritsa elementi impulsi o‘zgarishini hisobga olinmasa, ko‘rilayotgan zona – faqat parabolik dispersiya qonuni uchun o‘rinli (zaryadli zarralarning effektiv massalarini o‘zgarmas) va eng asosiysi o‘tkazuvchanlik va valent zonalarini bir – biriga nisbatan simmetrik zonalar deb olinsa, u holda zonalararo magnitooptik yutilish koeffitsienti $\alpha^{2d}(\omega, B, T, d)$ ni aynan $N_{jds}^{2d}(\hbar\nu, E_{cv}^{2d}(B, T, d, N_L^{cv}, n_Z))$ orqali aniqlashga imkon topiladi. Yuqoridagi (6) va (9) ifodalarni hisobga olgan holda, to‘g‘ri zonali kvant o‘lchamli yarimo‘tkazgichlarning magnitooptik yutilish koeffitsientini harorat va kuchli magnit maydonga bog‘liqligini belgilovchi yangi analitik formulani keltirib chiqariladi:

$$\alpha_B^{2d}(\hbar\nu, B, T, d) = \frac{2\pi e^2 |P_{cv}|^2}{nc\epsilon_0 m_0^2 2\pi\nu V} \sum_{ij} |S_{civj}|^2 N_{jds}^{2d}(\hbar\nu, E_{cv}^{2d}(B, T, d, N_L^{cv}, n_Z)) \quad (10)$$

yoki


$$\alpha_B^{2d}(\hbar\nu, B, T, d) = \frac{2\pi e^2 |P_{cv}|^2}{nc\epsilon_0 m_0^2 2\pi\nu V} \frac{eB}{\pi\hbar} \cdot \frac{1}{kT} \cdot \frac{m_{op} S}{2\pi\hbar^2} \times \sum_{ij} |S_{civj}|^2 \sum_{N_L^c, N_L^v, n_Z} \exp \left[- \frac{\left(\hbar\nu - \left(E_g^{2d}(0) + \left(N_L^c + \frac{1}{2} \right) \hbar\omega_c^c + \left(N_L^v + \frac{1}{2} \right) \hbar\omega_c^v + \frac{\hbar^2 \pi^2}{2m_{cv}^* d^2} n_Z^2 \right) \right)^2}{(kT)^2} \right] \quad (11)$$

Agar, $S/V = a^{-1}$ va $A_{cv}^{2d} \approx \frac{m_{op} e^2 |P_{cv}|^2}{nc\epsilon_0 m_0^2 \hbar a}$ kabi o‘zgarmas kattaliklar kiritib olinsa, (11) ifoda qo‘yidagi ko‘rinishga keladi:


$$\alpha_B^{2d}(\hbar\nu, B, T, d) = A_{cv}^{2d} \cdot \frac{\omega_s}{\omega_{op}} \cdot \frac{1}{kT} \times \sum_{ij} |S_{civj}|^2 \sum_{N_L^c, N_L^v, n_Z} \exp \left[- \frac{\left(\hbar\nu - \left(E_g^{2d}(0) + \left(N_L^c + \frac{1}{2} \right) \hbar\omega_c^c + \left(N_L^v + \frac{1}{2} \right) \hbar\omega_c^v + \frac{\hbar^2 \pi^2}{2m_{cv}^* d^2} n_Z^2 \right) \right)^2}{(kT)^2} \right] \quad (12)$$

6-rasmda, Landau sathlari soni 12 ga teng bo‘lib, uni 5-rasmdan farqi, 9 Tl magnit maydon induksiyasi ta’sirida *InGaAs* kvant o‘raning yutilish koeffitsientini ossillyatsiyalanish jarayonlari yaqqol kuzatilmoqda. Ossillyatsiya jarayonlari 5-rasmda keltirilgan E_1 energiyadan keyingi Landau sathlari hisoblanadi. Ya’ni, 5-

rasmdagi birinchi va ikkinchi “zinasimon” energetik spektrlar orasidagi diskret Landau sathlari soni 6-rasmda keltirilgan.



